



## YASHIL IQTISODIYOT TIZIMIGA O'TISH SHAROITIDA SOLIQ INSTRUMENTLARINING AHAMIYATI

**Yuldasheva Madina Tohir qizi**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi

"O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari" ilmiy-tadqiqot

markazi 1-bosqich doktoranti

 [https://doi.org/10.55439/ECED/vol25\\_iss1/a31](https://doi.org/10.55439/ECED/vol25_iss1/a31)

**Annotatsiya.** Mazkur maqola jahon mamlakatlarining yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonlarida soliq instrumentlarining ahamiyatini tahlil qiladi. Bunda iqlim o'zgarishi zamonaviy jamiyatimizning asosiy muammolaridan biridir. Yashil iqtisodiyotga o'tishda soliq instrumentlari alohida ahamiyatga ega. Chunki mamlakatlar soliq tizimida atrof-muhit uchun yo'naltirilgan soliqlarni joriy etish orqali soliqlardan tushgan daromadlarni ekologik sohalarga yo'naltiradi va atrof-muhitga zarar yetkazuvchi faoliyatni minimallashtiradi. Bunda nafaqat tabiat muhofaza qilinadi, balki mamlakat iqtisodiyotida o'sish ham rag'batlantiriladi. Tadqiqot davomida Yevropa mamlakatlari ilg'or tajribalari hamda Markaziy Osiyo mamlakatlaridagi hozirgi sharoit hamda statistik ma'lumotlari keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** yashil iqtisodiyot, globalizatsiya, yashil soliq instrumentlari, transport, energiya, resurslar, ifloslanganlik darajasi soliqlari, uglerod emissiyasi, aksiz solig'i.

## ВАЖНОСТЬ ИНСТРУМЕНТОВ ЗЕЛЕННОГО НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ В ПЕРЕХОДЕ К УСТОЙЧИВОЙ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СИСТЕМЕ

**Юлдашева Мадина Тохир кизи**

Докторантка 1-го курса "Научные основы и проблемы развития экономики Узбекистана" при Ташкентском государственном экономическом университете

**Аннотация:** В данной статье анализируется значение налоговых инструментов в процессе перехода стран мира к зеленой экономике. Изменение климата является одной из главных проблем нашего современного общества. Налоговые инструменты имеют особое значение при переходе к «зеленой» экономике. Потому что, вводя экологические налоги в налоговую систему стран, они направляют налоговые поступления в экологические отрасли и минимизируют деятельность, наносящую вред окружающей среде. Таким образом не только охраняется природа, но и стимулируется рост экономики страны. В ходе исследования были приведены лучшие практики европейских стран и текущие условия и статистические данные стран Центральной Азии.

**Ключевые слова:** зеленая экономика, глобализация, инструменты зеленого налогообложения, транспорт, энергетика, ресурсы, налоги за уровень загрязнения, выбросы углекислого газа, акцизный налог.

## THE IMPORTANCE OF GREEN TAX INSTRUMENTS IN THE TRANSITION TO A SUSTAINABLE ECONOMIC SYSTEM

**Yuldasheva Madina Takhir kizi**

1<sup>st</sup> year doctoral student of the

"Scientific Bases and Issues of Economic Development of Uzbekistan" under the Tashkent State University of Economics

**Annotation.** This article analyzes the importance of tax instruments in the process of transition of the countries of the world to the green economy. Climate change is one of the main problems of our modern society. Tax instruments are of particular importance in the transition to a green economy. Because by introducing environmental taxes in the tax system of countries, they direct tax revenues to ecological sectors and minimize activities that harm the environment. In this way, not only nature is protected, but also growth in the country's economy is stimulated. During the study, the best practices of European countries and the current conditions and statistical data of Central Asian countries were cited.

**Key words:** green economy, globalization, green tax instruments, transport, energy, resources, pollution level taxes, carbon emissions, excise tax.

**Kirish.** Atrof-muhit muammolari global miqyosda haqiqat bo'lib, iqlim o'zgarishi iqtisodiyotning sog'liqni saqlash, transport, ta'lim, turizm, ishlab chiqarish va tog'-kon sanoati kabi barcha sohalariga ta'sir qiladi. Kuchli toshqinlar, qurg'oqchilik, g'ayritabiiy yuqori harorat yoki past haroratlar iqtisodiyotlarga ta'sir qiluvchi iqlim o'zgarishining oqibatlari hisoblanadi. Global isish butun dunyo bo'ylab ob-havo va iqlimga allaqachon ta'sir qilgan va borgan sari ta'siri kuchayib, zaif ekotizimlarga, yovvoyi hayvonlar va o'simliklarning yashash joylariga xavf tug'dirmoqda. Yashil soliqlar yoki ekologik soliqlar barqaror iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantirish va atrof-muhit degradatsiyasini yumshatish uchun mamlakatlar tomonidan undiriladigan soliq turi-dir. Bunda tabiatga salbiy ta'sir ko'rsatadigan faoliyat, mahsulot yoki xizmatlar uchun soliq yoki yig'imlarning undirilishi tushuniladi. Yashil soliqlarning asosiy maqsadlari iqtisodiy faoliyat bilan bog'liq ekologik xarajatlarni o'z ichiga olish va jismoniy shaxslar, korxonalar va sanoatni yanada ekologik toza amaliyotlarni qabul qilishga rag'batlantirishdan iborat. Globalizatsiya jarayonida mamlakatlar barqaror iqtisodiyot tizimiga o'tishida yashil soliqlar shakllantirishning o'ziga xos ahamiyati katta hisoblanadi. Yashil soliqlarni joriy qilish aholi va ishlab chiqarish korxonalarining xulq-atvoriga ta'sir qilish, zamonaviy innovatsiyalarni rivojlantirish va atrof-muhitni muhofaza qilish hamda barqaror rivojlanish uchun mablag'larni ishlab chiqarishni taqdim etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi "2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejoychi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risida" farmonlari yashil iqtisodiyotga o'tish bosqichi jarayonlarini qo'llab-quvvatlashda xizmat qiladi. Chunki yashil iqtisodiyotga o'tish O'zbekiston Respublikasining asosiy vazifalaridan bo'lib, texnologik modernizatsiyalash va moliyaviy mexanizmlarni rivojlantirish orqali iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda Orolbo'yidagi ekologik inqirozning salbiy ta'sirini yumshatish choralari o'z ichiga oladi. 2024-yil boshida Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan aholi salomatligi salbiy ta'sirlarini kamaytirish va tabiatga keltiriladigan zararlarni qisqartirish maqsadida AI-80 benziniga aksiz solig'i indeksatsiya qilindi (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi). Keltirib o'tish joizki, O'zbekistonda muqobil energiya manbalarini o'rnat-

ganlik yoki ulardan foydalanganlik uchun jismoniy shaxslarga ham, yuridik shaxslarga ham biron-bir soliq turi belgilanmagan (PF-4512-son, 2013). 2023-yil 1-apreldan umumiy quvvati 100 kVtgacha bo'lgan qayta tiklanuvchi energiya manbalarini (QTEM) qurilmalarini o'rnatgan jismoniy va yuridik shaxslar ayrim soliqlarni to'lashdan ozod etiladi (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi). Bundan tashqari O'zbekistonda dolzarb maqsadlar sifatida "yashil iqtisodiyot"ga o'tish, uning asosi bo'lgan qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish ko'rsatkichlarini keskin oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini 25 ming MVt hamda jami iste'moldagi ulushini 40 foizga yetkazish, sanoatda "yashil sertifikat"lar bozorini rivojlantirish va "ekologik markirovkalash" amaliyotini joriy qilish o'z aksini topganini keltirib o'tishimiz mumkin (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son). Hozirga kunda mamlakatimiz soliqqa tortish tizimida yana qator ekologiyaga zararli va ifloslanuvchi chiqindilar va gazlar ishlab chiqaruvchi sohalarda aksiz solig'i undiriladi. Bulardan benzin, dizel, propan, metan shaxobchalari, "Uztransgaz" ishlab chiqargan gaz uchun (aholi iste'moli uchun yo'naltirilgan gazlardan tashqari), "General Motors" ishlab chiqargan avtomobillari uchun hamda tabiiy resurslar eksportiga aksiz solig'i indeksatsiya qilinadi.


**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Soliq tushumlari davlat daromadlarining eng muhim manbalaridan biri hisoblanadi, chunki u davlat tomonidan istalgan iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy maqsadlarga erishish uchun, turli iqtisodiy faoliyatga ta'sir ko'rsatish uchun qo'llaniladigan moliyaviy siyosat vositalaridan hisoblanadi. N.Houssam o'z tadqiqotida ushbu nazariyani ilgari surgan (Houssam et al., 2023). Zamonaviy globalizatsiya sharoitida jahon mamlakatlari global hamda milliy miqyosda atrof-muhit va yashil muammolarni hal qilishga katta e'tibor qaratmoqda. Jahonda ekologik yoki yashil soliqlar yashil rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish uchun ekologik siyosat chora-tadbirlaridan biri hisoblanadi. Yashil soliq yoki ekologik soliq instrumentlari atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilishning iqtisodiy vositasi bo'lib, ular ekologik yo'naltirilgan soliqlar sifatida qabul qilinadi. Olim E.Sulisnaning Rumning fikriga ko'ra, yashil soliqlar issiqxona gazlari emissiyasi, suvning ifloslanishi, chiqindilarni ishlab chiqarish va energiya iste'moli kabi ekologik xarajatlarni keltirib chiqaradigan mahsulotlar, xizmatlar yoki faoliyat uchun soliq undirish yoki imtiyozlar berishni o'z ichiga oladi (Sulisnaningrum et al., 2023). Yashil soliqlarning asosiy maqsadi ekologik toza amaliyotlarni rag'

batlantirish orqali ifloslanish va resurslarning kamayishiga yo'l qo'ymaslik orqali barqaror rivojlanishga yordam berishdir.

Yashil soliqlar, odatda, ikki guruhga bo'lina-di, ekologik soliqlar va ekologiyaga bog'liq bo'l-gan soliqlar, ko'pchilik olimlar ularni "ekologik soliqlar" yoki shunchaki "yashil soliqlar" atamasi ostida ifodalaydi. Rivojlangan mamlakatlarda barqaror iqtisodiyot tizimiga o'tish jarayonida quyidagi yashil soliqlar va yig'implarning quyidagi turlari taklif qilingan hamda amalda qo'llanilmoq-da. Z.Z.Ghasemi, S.N.Mousavi hamda B.Najafi o'z tadqiqotlarida zamonaviy yashil soliq turlari haqida to'xtalib o'tgan (Ghasemi, Mousavi, and Najafi, 2020). Ulardan uglerod soliqlari karbonat anhidrid (CO<sub>2</sub>) emissiyasini kamaytirish uchun maxsus ishlab chiqilgan. Ular ko'mir, neft va tabiiy gaz kabi qazib olinadigan yoqilg'ilarga, uglerod tarkibiga qarab undiriladi. M.Mohammed tahlil qilganidek, uglerodni ko'p talab qiladigan faoliyat xarajatlarini oshirish orqali uglerod soliqlari toza va qayta tiklanadigan energiya man-balaridan foydalanishni rag'batlantiradi (Moham-med, 2020). Havo va suvni ifloslantirganligi uchun sanoat korxonalaridan ifloslantiruvchi moddalar chiqariladigan miqdoridan undiriladi-

gan soliqlar ifloslanish soliqlari deb ham ataladi. Ushbu soliq stavkalari, odatda, ishlab chiqarilgan ifloslantiruvchi moddalar hajmi yoki zaharliligiga asoslanadi, bu, o'z navbatida, kompaniyalarni toza texnologiyalar va amaliyotlarga sarmoya kiritishga undaydi. Yashil soliq instrumentlari bundan tashqari atrof-muhitga ta'siri yuqori bo'l-gan mahsulotlarni ishlab chiqarish, utilizatsiya qilish yoki import qilishdan chiqarilgan chiqindi-lardan undiriladi (Ahmed et al., 2022). Ular chiqindilarni ishlab chiqarishni kamaytirish va qayta ishlash sohalarini rag'batlantirishga qara-tilgan. Masalan, plastik qoplarga yoki bir martalik mahsulotlarga soliqlar iste'molchilarni qayta foydalanish mumkin bo'lgan variantlarga o'tishga undaydi. Yana bir yashil soliq instrumentlari resurs soliqlaridir. Bu soliqlar foydali qazilmalar, yog'och, suv kabi tabiiy resurslarni qazib olish va ulardan foydalanishga nisbatan qo'llanilishini ta'kidlaydi Z.Zhang o'zining tadqiqotida (Zhang, 2022).

Yashil soliqlardan olingan daromad, ko'pin-cha, qayta tiklanadigan energiya loyihalariga, ekologik tadqiqotlar va yashil texnologiyalarni rivojlantirishga sarmoya qilinadi.



**1-rasm. Rivojlangan Yevropa mamlakatlari tomonidan joriy qilingan hamda qo'llab kelinayotgan yashil soliq turlari**

*Manba: OECD tashkiloti manbalaridan muallif o'zi umumlashtirgan.*

Ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda ushbu soliqlarning turli shakllari qabul qilingan. Fran-

siyada hozirgi kunda TGAP yoki ifloslantiruvchi faoliyat bo'yicha umumiy solig'i joriy qilingan


bo'lib, u karbonsizlangan iqtisodiyotga o'tishga yordam beradigan asosiy iqtisodiy vositalardan biri hisoblanadi, bundan tashqari yuqoridagi soliq instrumentlaridan bo'lgan avtomobilni ro'yxatdan o'tkazish solig'i ham Fransiyada 2014-yilda qabul qilingan. Bundan tashqari Kanada va Buyuk Britaniyada plastik qadoqlash solig'i amalda qo'llanilmoqda. Ispaniyada esa transport vositalaridan foydalanish uchun soliqlar mavjud. Buyuk Britaniyada London transporti uchun 2017-yilda Markaziy kirish to'lovi joriy qilingan. Germaniya va Niderlandiyada energiya solig'i hamda Chexiyada havo ifloslanishi uchun to'lovlar undiriladi. Fransiya va Germaniyada atrof-muhitni ifloslaniruvchi harakatlar uchun soliqlar majburiy hisoblanadi. Latviyada tabiiy resurslar solig'i joriy qilingan. Bundan tashqari Germaniya subsidiyalari va soliq imtiyozlari bilan elektron mobillikka o'tishni targ'ib qilmoqda. Yo'lovchilar havo transportidan foydalanishi atrof-muhit uchun zarar keltirishini kamaytirish maqsadida shaharlararo temir yo'l chiptalariga QQSning pasaytirilgan stavkasi qo'llaniladi (Muresianu and Li, 2022). Yaponiya uglerod solig'ini joriy qilgan birinchi Osiyo mamlakati bo'lib, hozirda global isishga qarshi chora solig'i atrof-muhitga ta'siri (CO<sub>2</sub> emissiyasi) bo'yicha barcha qazib olinadigan yoqilg'ilarga joriy etmoqda. Yaponiya hukumati global isishga qarshi kurash rejasini qayta ko'rib chiqdi va 2030-yilga mo'ljallangan maqsadni 2013-yilga nisbatan 46 foizga qayta belgiladi. 2021-yilga kelib esa Yevropa Ittifoqining ekologik soliq tushumi 325,8 milliard yevroni tashkil etdi, bu soliqlar va ijtimoiy to'lovlardan tushadigan jami davlat daromadlarining 5,4 foizini va Yevropa Ittifoqi yalpi ichki mahsulotining (YaIM) 2,2 foizini tashkil etdi. Rivojlangan mamlakatlarda energiya solig'i tushumlari deflyatsiya qilingandan keyin, 2002-yildan 2021-yilgacha energiya bo'yicha yashirin soliq stavkasi real ko'rinishda 13,5 %ga o'sdi va 2014-yildan 2019-yilgacha yashirin soliq stavkasi oshishi davom etdi.

Xalqaro tashkilotlar global iqlim o'zgarishi yoki havoning isishi, suv tanqisligi muammolari, havo va boshqa ifloslanish turlari kabi ekologik muammolarga qarshi kurash olib borish maqsadida hamda yashil rivojlanishni rag'batlantirish uchun ko'plab bitimlar va dasturlarni taklif qildi (Zheng, Zhang, and Hu, 2022). Shu jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit bo'yicha dasturi (UNEP) yashil rivojlanishni inson farovonligini yaxshilash, shu bilan birga, ekologik xavflarni sezilarli darajada kamaytirish va ekologik tanqislikni yumshatish jarayoni sifatida baholaydi. Unga misol tariqasida UNEP qayta tiklandigan resurslarga sarmoya kiritish, ekologik toza

jamiyat qurish va energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan Global Yashil yangi kelishuvni taklif qildi (European Commission, 2021). Ushbu kelishuv 1,8 trillion yevrolik investitsiya bilan moliyalashtirildi, bu miqdor Yevropa Ittifoqining yetti yillik budjetiga teng. Ushbu kelishuvda Yevropa Ittifoqining iqlim, energetika, transport va soliq siyosatini 2030-yilga borib, issiqxona gazlari emissiyasini 1990-yilga nisbatan kamida 55 foizga kamaytirishga moslashtirish takliflar to'plamini qabul qildi. 2021-yilda Yevropa Ittifoqida umumiy ekologik soliq tushumi 331,3 milliard yevroni tashkil etdi, bu Yevropa Ittifoqi YaIMning 2,2 foizini va soliqlar va ijtimoiy to'lovlardan YI hukumati umumiy daromadining 5,5 foizini tashkil etadi. Energiya soliqlari ekologik soliqlardan (jami 78 foiz) umumiy tushumlarning to'rt dan uch qismidan ko'prog'ini tashkil etdi, bu transport (18 foiz), ifloslanish va resurslar (3,6 foiz) soliqlaridan ancha oldinda hisoblanadi (Deal, 2023).

**Tadqiqot metodologiyasi.** Yashil soliq instrumentlarining mamlakatlar iqtisodiyotida hamda iqtisodiy o'sishidagi ahamiyatini tahlil qilishda ilmiy tadqiqotlarni o'rganish, qiyosiy solishtirish, statistik ma'lumotlarni o'rganish va tahlil qilish, fikrlash, ma'lumotlarni guruhlash, analiz va sintez usullaridan foydalanilgan.

**Tahlil va natijalar.** Iqlim o'zgarishi Markaziy Osiyo uchun ham hal qiluvchi masala hisoblanadi. Chunki Markaziy Osiyo iqlim o'zgarishiga eng zaif hududlardan biri hisoblanib, mintaqada iqlim o'zgarishining Orol dengizining qurishi, suv resurslari va oziq-ovqatning tanqisligi xavfi, keskin ob-havo hodisalari tez-tezligi kabi salbiy oqibatlari mavjud. Markaziy Osiyo iqtisodlari iqlim bilan bog'liq ikki xil xavf-xatarlarga duch kelmoqda. "Iqlim o'zgarishi Markaziy Osiyo qishloq xo'jaligi sektori uchun tobora jiddiy muammoga aylanib bormoqda", - deb ta'kidlaydi G.Growth o'z taqdiqotida (Growth). Misol tariqasida Markaziy Osiyo mamlakatlarida issiqxona gazlari chiqindilari darajasi sezilarli darajada ko'p ishlab chiqarilishini keltirib o'tishimiz mumkin. Turkmaniston va Qozog'iston eksporti uglevodorodlarga juda bog'liq bo'lib, natijada ular 22,45 va 19,8 tonna CO<sub>2</sub> ekvivalenti hisobida uglerod emissiyalar orqali boshqa zararli gazlarni ishlab chiqaradi. Aksincha, Yevropa Komissiyasi tahlillariga ko'ra, Qirg'iziston Respublikasi va Tojikiston energetika sohasida gidroenergetikaga sezilarli darajada bog'liqligi sababli issiqxona gazlari chiqindilarining eng past darajasi 3.03 va 2.25 larni ko'rsatmoqda (European Commission, 2021).




**2-rasm. Markaziy Osiyo mamlakatlarida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan issiqxona gazlari chiqindilari CO2 ekvivalentida, tonnalarda, 2021-yil**

*Manba: "Our World in Data".*

Yashil soliqlar ekologik muammolarni hal qilishda muhim ahamiyatga ega. Ular iqlim o'zgarishi bilan bog'liq muammolarni hal qilish va ekologik barqarorlikni ta'minlash uchun rivojlangan mamlakatlar tomonidan joriy qilinib, amalda qo'llanilmoqda. Ushbu soliqlar mamlakatlar uchun soliq bazalarini kengaytirishga imkon berib, daromad olish uchun muhim vositalardan biri hisoblanadi. C.Gramkow: "...yashil soliqlar fiskal konsolidatsiyaga va boshqa mavjud soliq bazalari uchun soliq stavkalarini minimallashtirishga olib kelishi mumkin deydi", - lekin yashil soliqlar bilan bog'liq raqobatbardoshlik, taqsimlash va barqaror rivojlanish muammolarini ham tahlil qilishni ta'kidlab o'tadi (Gramkow, 2020). Mamlakatlar iqtisodiyotida yashil soliqlarning ajamiyati samarali bo'lishi uchun yashil soliqlar boshqa

siyosat vositalari bilan birgalikda qo'llanilishi kerak. Bunda yashil soliqlar va ular bilan birgalikda qo'llaniladigan boshqa siyosat vositalari o'rtasida muvozanatni saqlash juda muhim. Aks holda, Yevropa yashil kelishuvida ta'kidlanganidek, iste'molchilar va ishlab chiqiruvchi tashkilotlar hamda davlat o'rtasida iqtisodiy va siyosiy muvozanat buzilishi kuzatilishi mumkin (European Commission, 2021).

Yashil soliqlar tortish tizimi mamlakatlar iqtisodiyotida fiskal ahamiyatidan tashqari, siyosat masalalariga ham keng ta'sir ko'rsatadi. Bunda narx belgilash, grantlar va subsidiyalar berish, atrof-muhitga oid qonunlarni qabul qilish va investitsiyalar jalb qilish, shuningdek, infratuzilmani rivojlantirish kabi boshqa iqtisodiy sohalariga ham o'z ta'sirini o'tkazadi.



**3-rasm. O'zbekiston Respublikasi YaIM o'zgarishi va sarflangan CO<sub>2</sub> o'zgarishi o'rtasida bog'liqlik tahlili**

*Manba: Dunyo banki hisoboti. <https://data.worldbank.org/indicator/NY.GDP.MKTP.KD.ZG?locations=UZ>*



Nemis yashil soliq tizimiga muvofiq, yashil soliqlarni joriy qilishda ko'proq yuk iste'molchilar yoki foydalanuvchilar bo'yniga tushishi mumkin. Shuning uchun ijtimoiy infratuzilma va transport, sog'liqni saqlash va ta'lim kabi qulayliklarga sarmoya kiritish orqali zaif qatlamlar qo'llab-quvvatlanishi uchun ijtimoiy adolat masalalari ham ko'rib chiqilishi kerakligi nazarda tutiladi (Steuerpolitik, 2021). Iqlim o'zgarishining ushbu oqibatlarini global va Markaziy Osiyo mamlakatlari BMT tomonidan qabul qilingan "Barqaror rivojlantirish maqsadlari"ga erishish uchun muhim ta'sir ko'rsatadi. Mamlakatlar ekologik barqarorlik va muhofaza qilish hamda iqtisodiy o'sishni ta'minlash yo'llarini topishi kerak.

Yuqoridagi 3-rasm natijalaridan shuni aytish mumkinki, O'zbekiston YaIM kamroq CO<sub>2</sub> sarflagan vaqtda ham iqtisodiy o'sishi kuzatildi. Bundan xulosa qilamizki, mamlakat iqtisodiyotini qo'llab-quvvatlashda yashil soliq instrumentlarini joriy qilish mamlakatimiz milliy iqtisodiyoti rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi.

**Xulosa va takliflar.** Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, O'zbekiston soliq tizimida yashil soliq instrumentlaridan bo'lgan transport vositalaridan undiriladigan yashil soliqlar hamda atrof-muhitni ifloslantirilganligi uchun ishlab chiqarish korxonalaridan yashil soliq stavkalarini undirishni joriy qilish ko'rib chiqilishini taklif qilamiz. Xulosa qilib aytganda, yashil soliq instrumentlarini joriy etish atrof-muhit hamda mamlakatlar iqtisodiyoti uchun foyda keltiradi. Ekologiyaga zarar yetkazganligi uchun soliqlar undirish orqali hukumat korxonalar va fuqarolarni mas'uliyatli amaliyotlarni qo'llashga rag'batlantiradi.

Yashil soliqlarning asosiy afzalliklaridan biri uning issiqxona gazlari emissiyasini kamaytirish va iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish salohiyatidir. Bunda yashil soliqlar orqali korxonalar va jismoniy shaxslar o'z faoliyatlarining narxi oshishi tufayli, yanada barqarorroq alternativlardan foydalana boshlaydilar. Bu jarayon, o'z navbatida, global iqlim o'zgarishiga qarshi kurashda alohida ahamiyatli, chunki umumiy uglerod sarfining pasayishi va qayta tiklanadigan energiya manbalariga o'tilishi kuzatiladi. Bu texnologiya va resurslarni boshqarishda innovatsiyalarga olib kelishi mumkin.

Yashil soliqlar, o'z navbatida, mamlakatlar iqtisodiyotida daromad manbai bo'lib xizmat qiladi va ulardan atrof-muhitni muhofaza qilish tashabbuslariga qo'shimcha sarmoya kiritish uchun foydalaniladi. Soliqdan tushgan mablag'lar qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish, jamoat transporti infratuzilmasi yoki ekotizimlarni himoya qilish va tiklash tashabbuslari kabi loyihalarga yo'naltirilishi mumkin. Biroq yashil soliqlarni joriy qilishdagi asosiy masalalardan biri kam ta'minlangan aholi uchun paydo bo'ladigan moliyaviy bo'lgan yukdir. Bunda yashil soliq barqarorlikni rag'batlantirish va atrof-muhit degradatsiyasiga qarshi kurashda kuchli vosita bo'lishi va barqaror kelajakka erishishda hal qiluvchi rol o'ynashi mumkin. Ushbu sanab o'tilgan afzalliklarga asosanib, Markaziy Osiyo mamlakatlari ham barqaror iqtisodiyot tizimiga o'tishda yashil soliq instrumentlarini joriy qilish orqali atrof-muhitga zararlovchi moddalarni ishlab chiqarishni kamaytirishi mumkin.

#### **Manba va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Ahmed, Nihal et al. 2022. "Exploring the Causal Relationship among Green Taxes, Energy Intensity, and Energy Consumption in Nordic Countries: Dumitrescu and Hurlin Causality Approach". *Energies* 15(14).
2. Deal, The Green. 2023. "The Green Deal, Industrial Plan, Speeding up the Contribution of Europe's Innovative Clean Tech Industries to Net-Zero".
3. European Commission. 2021. *Green Taxation and Other Economic Instruments: Internalising Environmental Costs to Make the Polluter Pay*. [https://ieep.eu/uploads/articles/attachments/134d9257-53c5-4a20-885b-9f6615452486/Green taxation and other economic instruments - Internalising environmental costs to make the polluter pay\\_Study\\_10.11.2021.pdf?v=63807385248](https://ieep.eu/uploads/articles/attachments/134d9257-53c5-4a20-885b-9f6615452486/Green%20taxation%20and%20other%20economic%20instruments%20-%20Internalising%20environmental%20costs%20to%20make%20the%20polluter%20pay_Study_10.11.2021.pdf?v=63807385248).
4. Ghasemi, Zahra Zeinali, Seyed Nematollah Mousavi, and Bahaeddin Najafi. 2020. "Effects of Implementation of Green Tax on Environmental Pollutants' Dispersion on Macroeconomic Variables: Application of Multi-Regional General Equilibrium Model." *Caspian Journal of Environmental Sciences* 18(2): 181-92.
5. Gramkow, Camila. 2020. "Green Fiscal Policies An Armoury of Instruments to Recover Growth Sustainably": 56. <https://www.cepal.org/fr/node/51237>.
6. Growth, Green. "Green Growth in Practice Lessons from Country Experiences".
7. Houssam, Nourhane et al. 2023. "Assessing the Role of Green Economy on Sustainable Development in Developing Countries". *Heliyon* 9(6): e17306. <https://doi.org/10.1016/j.heliyon.2023.e17306>.
8. Mohammed, Mikidadu. 2020. "Green Tax Shocks and Economic Growth". *International Journal of Energy Economics and Policy* 10(2): 302-18.
9. Muresianu, Alex and Huaqun Li. 2022. "Carbon Taxes and the Future of Green Tax Reform" (794).
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risida" farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>.

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi "2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejavchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-6385716>.
12. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. *Бюджетнома\_2024-2026\_compressed.Pdf*. <https://api.mf.uz/media/filestore/>.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 1-martdagi PF-4512-sonli "Muqobil energiya manbalarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni. <https://lex.uz/docs/2138638>.
14. Steuerpolitik, Argumentationshilfe. 2021. "Gruene.de/Steuern" : 144-48.
15. Sulisnaningrum, Ema, Siti Mutmainah, Eddy Priyanto, and Amaury Capdeville Chapuzet. 2023. "Environmental Taxation and Green Economics in Southeast Asia". *Jurnal Akuntansi dan Keuangan* 25(1): 17-24.
16. Zhang, Zhiguang. 2022. "Evolution Paths of Green Economy Modes and Their Trend of Hypercycle Economy". *Chinese Journal of Population Resources and Environment* 20(1): 1-11. <http://dx.doi.org/10.1016/j.cjpre.2022.03.001>.
17. Zheng, Weidan, Luni Zhang, and Jianbo Hu. 2022. "Green Credit, Carbon Emission and High Quality Development of Green Economy in China". *Energy Reports* 8: 12215-26. <https://doi.org/10.1016/j.egyr.2022.09.013>.